

**“ATROFIMIZDAGI OLAM” VA “TABIATSHUNOSLIK” DARSLARINI
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH
JARAYONINI MODELLASHTIRISH**

Fariddun Izatulloyevich Ochilov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish jarayonini modellashtirish va bunda e’tibor beriladigan holatlar, muammolar va ularning yechimi bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, kompetensiyaviy yondashuv, prinsip, modellashtirish, tabiiy-ilmiy bilimlar.

MODELING THE PROCESS OF ORGANIZING COURSES “THE WORLD AROUND US” AND “NATURAL SCIENCE” ON THE BASIS OF COMPETENCY APPROACH

Fariddun Izatulloyevich Ochilov

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

ABSTRACT

The article describes the process of organizing the acquisition of scientific knowledge in the lessons “The World Around Us” and “Natural Science” on the basis of a competency-based approach, which focuses on the issues, problems and their solutions.

Keywords: The world around us, Natural sciences, elementary school students, competence approach, principles, modeling, natural sciences.

KIRISH

Ko‘plab tadqiqotchilar kompetensiyaviy yondashuv g‘oyasini qo‘llab-quvvatlovchi alohida ta’lim muhitini tashkil qilmay turib o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish imkonsiz ekanligini ta’kidlaganlar. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ilmiy yondashuvlarni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tadbiq etish uchun ko‘p variantli o‘quv materiallaridan foydalanish talab

qilinadi. Ushbu o‘quv materiallar, birinchi navbatda, o‘z ichiga tabiiy-ilmiy bilimlarni qamrab olishi kerak. Shuningdek, umummadaniy qadriyatlar, odob-axloq me’yorlari, tabiat hodisalari atrof-muhit bilan bog‘liq holda o‘quv materiallari mazmunida o‘z aksini topishi lozim. Maktab o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy bilimlarni egallash, atrof-muhitdagi voqeа-hodisalarни anglash ehtiyoji o‘quv jarayonida qondiriladi. Shu jihatdan biz quyida boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish jarayonini modellashtirishni ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOLOGIYASI

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayoni ilmiy, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotlar va bilimlarning manbai hisoblanadi. Bu jarayonda shaxslararo ijtimoiy munosabatlar hamda insonning tabiatga munosabati o‘rganiladi. Ularni o‘quvchilarga o‘rgatishda turli usullar va vositalardan foydalilanildi. O‘quv jarayonida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari yordamida muayyan faoliyatni amalga oshiradilar.

Tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rganish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish jarayonini loyihalash. Bunda tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish jarayonining maqsadlari, vazifalari, qo‘llaniladigan usul va metodlarni oydinlashtirish, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladigan savol va topshiriqlarni tanlash hamda tizimlashtirish, o‘quvchilarda amaliy faoliyat tajribasining shakllanganlik darajalarini tashxislash nazarda tutiladi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatishda har bir sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlari, tabiat hodisalariga bo‘lgan qiziqishlari, ta’lim muassasasi joylashgan hududning tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘srimcha o‘quv materiallarini, savol va topshiriqlarni tanlash uchun o‘qituvchilarni yo‘naltirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqish.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga taqdim etilayotgan qo‘srimcha o‘quv materiallari, savol va topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tanlash va ularning o‘quvchilarda ijtimoiy faoliyat tajribasini hosil qila olish darajasini muntazam nazoratdan o‘tkazish.

4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kompetensiyaviy yondashuv asosida tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish jarayonining samaradorlik darajasini muntazam tashxislash, tahlil qilish, aniqlangan bo‘shliqlarni korreksiyalashni ta’minlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kompetensiyaviy yondashuv asosida tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish jarayonini loyihalashda quyidagilarga e’tibor qaratish talab etiladi:

- tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga qanday bilimlarni taqdim etish zarurligini aniq ko‘rsatish;
- sinfdagi o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rganishga nisbatan qiziqishlari va buni amaliy faoliyatlarida qo‘llashga moyilliklarini hisobga olish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tabiiy-ilmiy bilimlar hamda ularni o‘rgatish metodlarini aniq ifodalash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kompetensiyaviy yondashuv asosida tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarini tanlash va metodik jihatdan asoslash;
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘quvchilarga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish metodlari va texnologiyalarini chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlash asosida metodik xizmat imkoniyatlarini kengaytirish.

Boshlang‘ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuvga asolangan o‘quv jarayonini tashkil etish ta’lim mazmuni bilan bir qatorda o‘qituvchining metodik mahoratiga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv jarayonida taqdim etiladigan tabiiy-ilmiy bilimlarning yaxlitligi, uzviyligi, atrof-muhit bilan o‘zaro aloqadorligi, aniqligi, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi uchun oson va qulayligi, ularda tabiiy jarayonlarni aniq idrok etish ko‘nikmasini hosil qilishga ko‘maklasha olishiga e’tibor qaratishi lozim.

Pedagoglar kompetensiyaviy yondashuvga asolangan tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etishda quyidagi prinsiplarga tayanishlari lozim:

1. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rganish jarayonida faoliyat sub’ekti sifatida namoyon bo‘lishlariga erishish, jumladan, o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yishi, vujudga kelgan tabiiy vaziyatlarni tahlil qila olishi, amaliy faoliyati mahsulini ko‘rsata olishi (gerbariyalar yasash, o‘simgiliklar turlarini farqlay olish, ob-havodagi o‘zgarishlarni sharhlay olish), o‘zining amaliy harakatlarini nazorat qila olishi, o‘zi va sinfdoshlarining harakatlarini baholay olishini ta’minlash.

2. O‘rganiyatotgan bilimlar va tushunchalarning tabiat hodisalari bilan muvofiqligini ta’minlash prinsipi.

3. Tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida taqdim etishda ulardagi tanlov erkinligini ta’minlash prinsipi. Qo‘sishimcha mashg‘ulotlar, tabiat qo‘ynidagi sayohatlar, sinfdan tashqari pedagogik jarayonda tanlovlarga asoslangan

holda tabiiy hodisalarini o‘rganish va ular ustida amaliy faoliyat bajarishlariga imkoniyat yaratish.

4. Ochiqlilik prinsipi. Tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatishda o‘quvchilarga tabiat hodisalari va ular haqidagi bilimlarni mustaqil bilim olish asosida o‘rganishlariga imkoniyat yaratish.

5. Tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish prinsipi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatishda, amaliy faoliyat jarayonida tabiatni asrash, tabiiy jismlarni ehtiyyot qilish, ularga ziyon yetkazmaslikka intilish ko‘nikmalari ham hosil qilinishi lozim.

Mazkur prinsiplar kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish jarayonini loyihalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tabiat va inson munosabatlarini ijobjiy nuqtai nazardan rivojlantirish, o‘quvchilarda ekologik bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, tabiatga nisbatan ehtiyyotkor munosabatda bo‘lish tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish jarayonida muayyan kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini ta’minlash uchun quyidagilarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarda tabiatga nisbatan aniq nuqtai nazarni shakllantirish;
- tabiat hodisalariga nisbatan ilmiy asoslangan ma’lumotlarni o‘quvchilarga taqdim etish;
- tabiat hodisalarining inson faoliyati bilan bevosita bog‘liqligini o‘quvchilar ongiga yetkazish;
- tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini sinovdan o‘tkazish maqsadida o‘quvchilar oldiga aniq savollar qo‘ya olish;
- tabiat hodisalari bilan bog‘liq holda muayyan farazlarni ilgari surishga o‘quvchilarni o‘rgatish;
- tabiat hodisalari ustida kichik-kichik tadqiqotlar o‘tkazishga o‘quvchilar e’tiborini qaratish hamda ushbu tadqiqotlar jarayonida yo‘l qo‘ygan xatolarini bartaraf etishlariga ko‘maklashish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy hodisalarni o‘rganish, jonzotlar va o‘simliklarga nisbatan o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash imkonini berish kabilari.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish jarayonining o‘ziga xos xususiyati, uning mazmuni va metodikasi innovatsion xarakterga ega ekanligi bilan belgilanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga tayangan holda tabiiy bilimlarni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini

faollashtirish bilan bir qatorda, atorof-muhitga nisbatan ongli munosabat hamda estetik dunyoqarashni shakllantiradi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhit, tabiat hodisalarini o‘rganish mayllarini uyg‘otishga hizmat qiladi. Buning uchun tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish jarayoni oldiga quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

- tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan “Atrofimizdagi olam”, “Tabiatshunoslik” darslarida o‘quvchilarga taqdim etiladigan o‘quv materiallari, savol-topshiriqlar, o‘yinlar, multimedia vositalarini tanlashda ularning tabiat va atrof olamga bo‘lgan qiziqishlari, o‘rganish mayllari, istak va ehtiyojlarini aniq hisobga olish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zi va sinfdoshlari tomonidan o‘rganilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini nazorat qilish, o‘zi va o‘rtoqlarining faoliyat natijalarini baholash, atrof-muhitga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish tajribasini shakllantirish;
- tabiat hodisalari bilan bog‘liq holda vujudga keladigan noxush holatlardan himoyalanish, o‘z sog‘ligini muhofaza qilish ko‘nikmalarini hosil qilish, gigienik talablarga rioya etish ko‘nikmasini hosil qilish;
- tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rganish bilan bog‘liq bilish faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladigan o‘quv materiallarini tanlash va o‘quvchilarga taqdim etish;
- tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va qo‘llash bilan bog‘liq bilish usullaridan foydalana olishga o‘quvchilarni o‘rgatish;
- tabiat bilan ongli muloqotni amalga oshirish usullarini qo‘llay olishga o‘quvchilarni odatlantirish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlarni mustaqil o‘rganish va o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llash tajribasini hosil qilish va hokazo.

XULOSA

Tabiiy-ilmiy bilimlarni modellashtirish, ular asosida topshiriqlarni yechish mahoratini puxta egallahshi ta’minkaydi. Tashkiliy daraja o‘qituvchining ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ishini qanday tashkil qilishi, ishni tashkil qilish bo‘yicha qanday ko‘rsatmalar berilishi; “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik”ni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Tashkiliy darajani tashxislashda darsda ishslashning qanday shakllari qo‘llanishi (individual, juftlikda, kichik guruhlarda, frontal (yalpi); pedagogning guruhli diskussiyani qanday tashkil qilishi; chizma yoki modelli vositalardan qanday, qachon va nima uchun foydalanishi; natijalar tahlili, bilimlarni va o‘zini-o‘zi nazorat qilish qanday o‘tkazilishi)ga e’tibor qaratiladi.

Dars tahlilini amalga oshirish “o‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatlari tizimida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirishga ko‘maklashadi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik asosida tabiat hodisalarini o‘rganadilar, tahlil qiladilar, o‘zlashtirgan bilimlarini o‘z faoliyatlarida qo‘llaydilar. Jumladan, gullarni parvarishlaydilar, manzarali rasmlar chizadilar, tabiat qo‘yniga sayr qiladilar, qushlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish maqsadida ularga inlar quradilar, ekinlarga suv quyadilar, ko‘chatlar o‘tqazadilar, kichkina ariqchalar va gulzorlarni tozalashda ishtirok etadilar va h.k.

REFERENCES

1. Йўлдошев Ж.Ф., Очилов Ф.И. Замонавий дарс технологияси // Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ISBN 978-9943-6308-3-3. “Фан ва технология”, 2020. – Б. 240.
2. Ochilov F.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatishning metodik xususiyatlari. “Maktab va hayot” ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent. ISSN 2010-5460. № 5 (153), 2020. 112 B. 42-46 betlar.
3. Ochilov F.I. Competitive approach among teaching in primary classes // Eastern European Scientific Journal. – Düsseldorf – Germany, ISSN 2199-7977. 2018. – Ausgabe. № 4. – P 233-236.
4. Очилов Ф.И. Социально-методические проблемы обучения учащихся начальной школы естественным и научным знаниям на основе компетентностного подхода // LX International correspondence scientific and practical conference «International scientific review of the problems and prospects of modern science and education». – Boston. USA. ISBN 978-1-64655-003-6. July 22-23, 2019. – P 62-64.
5. Тожибоева Г.Р. Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. Наука и мир, международный научный журнал, №1 (77), 2020, том 2, 32-34 стр.
6. Мардонов, Ш. К., & Жаббарова, О. М. (2020). ЗАДАЧИ УРОКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 862-870.
7. JABBOROVA, O. M., & UMAROVA, Z. A. (2020). Pedagogical Conflicts in Primary School Students - as an Important Social-Pedagogical Problem. Solid State Technology, 63(6), 235-241
8. Jabborova Onakhon Mannopovna. (2019). Psychological and Pedagogical Foundations of the Formation of the Artistic Perception of Students in Secondary Schools. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 9-14.